



H.SULAYMONNING “HINDISTON QO‘LYOZMA FONDLARI BO‘YLAB” MAQOLASI HAQIDA

Muallif: Abdurasul Eshonboboyev¹

Affiliyatsiya: Alisher Navoiy nomidagi Davlat adabiyot muzeyi bosh xazinaboni¹

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.20195894>

ANNOTATSIYA

Maqolada atoqli navoiyshunos olim Hamid Sulaymon boshchiligida 1970-yillarda Hindistonga uyushtirilgan ilmiy ekspeditsiya tafsilotlari va uning natijalari tahlil qilingan. Muallif safar davomida aniqlangan nodir qo‘lyozmalar, jumladan, Alisher Navoiy asarlarining faksimile nusxalari hamda fanga noma‘lum bo‘lgan yangi manbalar haqida qimmatli ma‘lumotlarni keltiradi. Tadqiqot xorijda saqlanayotgan milliy adabiy merosimizni o‘rganish va ilmiy iste‘fodaga kiritishning ahamiyatini ochib berishga xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: Hamid Sulaymon, Hindiston, qo‘lyozma, ekspeditsiya, Navoiyshunoslik, manbashunoslik, faksimile.

Atoqli navoiyshunos Hamid Sulaymon ulug‘ shoir lirik merosini o‘rganish borasida unutilmas ishlarni amalga oshirdi. Bundan tashqari u xorijiy mamlakatlarda saqlanayotgan xalqimizning ma‘naviy-madaniy mulki bo‘lmish noyob yozma yodgorliklardan nusxa olib yurtimizda nashr etishda ham jonbozlik ko‘rsatgan edi. Olimning mashaqqatli mehnati tufayli ko‘plab qadimiy manbalar ilmiy iste‘fodaga kiritildi, adabiyotimiz, madaniyatimiz xazinasi boyidi. Biz mulohaza yuritmoqchi bo‘lgan yuqoridagi maqola olim vafotidan keyin ilmiy iste‘fodaga kiritilgan [1:68-73].

Maqola “Советская тюркология” jurnalida chop etilgan, mazkur nashr turkiy xalqlar madaniyati, tarixi, tili, adabiyoti hamda etnografiyasining ham tarixiy, ham zamonaviy muammolarini tadqiq qilishga mo‘ljallangan bo‘lib, 1970 yildan to sobiq ittifoq tarqalgunga qadar muntazam chop etilgan. Jurnalda o‘zbek filologlarining maqolalari ham bosilgan, jumladan, tilshunos akademiklar G‘ani Abdurahmonov va Ergash Fozilov hamda Hamid Ne‘matov, Ergash Umarovning bir necha bitiklari nashr yuzini ko‘rgan.

Taniqli navoiyshunos maqolasida o‘zi boshchiligidagi Adabiyot muzeyi xodimlari tomonidan 1975, 1976-1977-yillari Hindiston davlatiga uyushtirilgan ilmiy ekspeditsiya natijalari borasida so‘z yuritadi. Buning sababi, O‘rta Osiyo xalqlari va Hindistonning iqtisodiy-siyosiy, madaniy-ilmiy aloqalari qadim zamonlarga borib ulanadi. Mirzo Bobur va boburiylar hukmronligi davrida esa bu aloqalar yanada kengayib, yangi shakl va mazmunda barqaror rivojlandi. Tarixdan ma‘lumki, O‘rta Osiyolik ko‘plab ijodkorlar Boburiylar davrida Hindistonga borib ijod qildilar va bu Turkiston xalqlarini hind madaniyati, san‘ati hamda adabiyoti bilan tanishuvida muhim omil bo‘ldi. Bundan tashqari, Hindistonda forsiy, turkiy tilda yaratilgan O‘rta Osiyo xalqlari o‘tmishiga aloqador tarixiy, adabiy manbalar, shuningdek, o‘lkamizdan yetishib chiqqan ijodkorlarning asarlari ham saqlanadi va shu tufayli turli sabablar



bilan Hindistonga borib qolgan qo'lyozma manbalarini tadqiq etish, ulardan nusxa olish arxeografik ekspeditsiyaning maqsadlaridan biri edi.

H.Sulaymon o'z vaqtida adabiyot muzeyining asosiy ilmiy yo'nalishini mana qanday belgilagan: "Alisher Navoiy nomidagi adabiyot muzeyining keng ko'lamda olib borayotgan ishlaridan biri Navoiy asarlarining tanqidiy teksti va akademik nashriga asos bo'ladigan, eng qadimiy va eng mo'tabar qo'lyozmalar seriyasini faksimile shaklida nashr qilishdir. Navoiyning o'z qo'li bilan yozilgan biror bir avtografi hozirgacha fan olamiga ma'lum bo'lmaganidan shoir qo'lyozmalarining faksimile nashrlari fan uchun favqulodda ahamiyatga egaligi shubhasiz". Ayni maqsadda "O'zbek adabiyoti qo'lyozma yodgorliklarining faksimile nashri seriyasi" tashkil etilgan, "Ilk devon" (1968-yil) ushbu seriyaning dastlabki nashridir.

Qizig'i shundaki, bu so'zlar o'tgan asrning 60-yillarida aytilgan, bu davrda hali Qo'lyozmalar instituti tashkil etilmagan edi. Ta'kidlash joizki, yuqoridagi fikrlar "Ilk devon"ning nashri yuzasidan aytilgani bilan Adabiyot muzeyi bugungi kunda ham mumtoz adabiyotimiz vakillarining "tanqidiy teksti va akademik nashriga asos bo'ladigan, eng qadimiy va eng mo'tabar qo'lyozmalar seriyasini faksimile shaklida"gi nashrlarini muntazam ravishda chop etib bormoqda.

Olim birinchi ekspeditsiya davomida hind olimlari bilan ilmiy aloqalar o'rnatilgani hamda qo'lyozma fondlar bilan yaqindan tanishuv bo'lganini o'rinni ta'kidlaydi. Ikkinchisidan esa, birinchi ekspeditsiyada boshlangan ishlar, ya'ni xalqimiz madaniyatiga daxldor noyob manbalar ajratib olinib, ilmiy tavsif etish ishlari davom etgan. Ekspeditsiya a'zolari Hindistonning Yangi-Dehli (Nyu-Deli), Patna, Kalkutta, Lakhnau, Alvara, Jaypur, Rampur, Haydarobod va Aligarx shaharlaridagi mavjud fondlarda uch oy davomida ishlaganlar. Shuningdek, ular hind hamkasblarining qo'lyozma manbalarni saqlash, ilmiy tavsiflash, kataloglashtirish va noyob asarlarni chop etish tajribasi bilan yaqindan tanishganlar.

Olimning so'ziga ko'ra, Sharq qo'lyozma yodgorliklarini saqlash ilmiy tavsif va tadqiq etish, chop etish ishlari Yangi-Dehli'dagi Milliy muzeyda, Patna shahridagi Davlat kutubxonasida, Haydarobod'dagi Salorjang muzeyida yaxshi yo'lga quyilgan. Bundan tashqari, olim shaxsiy kutubxonalar, ularda saqlanuvchi qo'lyozmalar xususida ham qator qiziqarli ma'lumotlarni bergan. Masalan, Lakhnau universiteti professori Amir Haydarning shaxsiy kolleksiyasida arab, fors, urdu va turkiy tilda bitilgan *o'n besh mingdan* ortiq qo'lyozma manba mavjud ekan.

H.Sulaymoning ma'lumotiga ko'ra, ekspeditsiya jarayonida Hindiston fondlarida saqlayotgan 138305 jild kitob ko'rib chiqilgan va shundan 297 qo'lyozmaga ilmiy tavsif berilgan. Bulardan bevosita Markaziy Osiyo xalqlari madaniy-ma'naviy, adabiy merosiga bevosita aloqador 41 manbaning mikrofilmi, miniatyuralardan esa 1000 yaqin rangli slaydlar hamda 16 va 17 asrga mansub xattotlik namunalardan nusxalar olingan [2:208-222]. Manbalarni sinchiklab o'rganish davomida ikki noma'lum o'zbek adibining – Hofiz Xorazmiy va Said Qosimiy adabiy merosining topilishi favqulodda voqea bo'ldi.

Bulardan tashqari, H.Sulaymonning mazkur maqolasida boshqa muhim ma'lumotlar ham keltirilganki ularga e'tibor berish lozim deb bilamiz. Masalan, navoiyshunos Salorjang muzeyida saqlanayotgan o'zbek shoiri Farog'iy yoxud fors shoiri Mir Muhammad G'aznaviyning devonlari haqida ma'lumot beradiki, ilmiy adabiyotlarda bu ikki ijodkor borasida ma'lumotlar uchramaydi. Bundan tashqari, olim Haydarobod shahridagi doktor Muhammad Yusufiddinning shaxsiy kutubxonasi "Saidiya"da Abdurahmon Jomiyning shu kunga qadar fanga noma'lum

bo'lgan fors tilida yozilgan asarining avtografi saqlanishi haqida xabar beradi. Shuningdek, Aligarx shahrida yashovchi professor Raxmatullaxonning shaxsiy kutubxonasida *Mahmud Zamaxshariy (1051-1143) tomonidan ko'chirilgan qo'lyozma muqovasining birinchi sahifasida kitobning Sa'diy Sheroziyga tegishli ekanligi qayd etilgan va shoirning dasxati mavjud. Kutubxona egasi Rahmatullaxonning e'tirof etishicha, bu avtograf bizgacha saqlanib qolgan shoirning yagona dastxati bo'lib, H.Sulaymon uning suratini olishga muvaffaq bo'lgan.* Qizig'i shundaki, bu noyob manba keyinchalik Boburiy hukmdorlardan Akbarshox va Shoxjahon kutubxonasidan ham joy olgan.

Hindiston qo'lyozma fondlarida mavjud Sharq shoirlarining adabiy merosi orasida fors va ozar tilida ijod qilgan, "sabki hindiy" – hind uslubi yo'nalishiga mansub mashhur shoir Soib Tabriziy (1601-1677) kulliyotining dastxat (avtograf) nusxasi bo'lib, H.Sulaymon uning mikrofilmini Ozarbayjon Fanlar akademiyasiga taqdim qilish uchun olgan.

Yuqoridagi ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki, ilmiy ekspeditsiya nihoyatda mazmunli o'tgan. Sharq adabiyoti namoyondalari avtografi masalasi muammoli, murakkab bo'lib, aksariyat shoirlar asarining dastxati u yoqda tursin, hatto hayotlik davrida ko'chirilgan nusxalari ham bizgacha yetib kelmaganligini hisobga olsak, navoiyshunos H.Sulaymon tomonidan aniqlangan faktlar favqulodda ahamiyat kasb etadi. Agar yuqoridagi faktlar qo'shimcha tekshiruv, izlanishlar orqali tasdiqlansa u holatda biz vatandoshimiz Mahmud Zamaxshariy tomonidan ko'chirilgan noyob manbaning shohidiga aylanamiz. Shuni ta'kidlash joizki, navoiyshunos keltirgan dalillar shaxsiy kutubxonada saqlanuvchi manbalarga asoslanadi, biroq bu kabi kitoblar kataloglarga aksariyat holatda kiritilmaydi, tadqiqotchilarning bu kutubxonalarga tashrifi ham bir qadar cheklangan. Demakki, shaxsiy kutubxonalarda saqlanuvchi qo'lyozma manbalar hozircha olimlar nigohidan, ilmiy iste'fodadan chetdadir. Bundan tashqari, olim birinchi ekspeditsiya davomida Hindiston fondlaridan 70 dan ortiq Hirot, Samarqand, Buxoro, Kashmir va Tabrizda shaharlarida 15-16 asrlarda yaratilgan miniatyurali, bezakli noyob manbalarni qo'lga kiritilgani haqida so'zlaydi. Ikkinchi ekspeditsiya yakunlariga ko'ra bu xil noyob manbalarning soni 107 dan oshgan. Ko'rinib turibdiki, ilmiy safar oldidagi maqsad faqatgina qadimiy, noyob manbalarni topish emas, balki Sharq miniatyura san'ati namunalari bilan yaqindan tanishish ham bo'lgan. Mazkur ekspeditsiyaning samarali kechganini shundan ham bilsa bo'ladiki, qo'lga kiritilgan, aniqlangan, nusxasi olingan noyob manbalardan tashqari, hind olimlari Qo'lyozmalar institutining ilmiy kutubxonasiga Hindiston fondlarida saqlanayotgan Sharq qo'lyozmalari katalogi hamda hind olimlarining tadqiqotlaridan iborat 52 kitobni taqdim qilgan. Eslatib o'tamiz, Hindistonga uyushtirilgan ekspeditsiya dastlabki bo'lmay, H.Sulaymon 1968-yilning fevral oyida ilmiy safar bilan Fransiya va Angliyada ham bo'lgan edi [2]. Bu safar natijasida qo'lga kiritilgan manbalar ilm ahliga yaxshi ma'lum. Muhimi, H.Sulaymon rafiqasi F.Sulaymonovanning yozishicha Yevropa mintaqasida mashhur bo'lgan shaxsiy kutubxona bilan tanishish sharafiga muyassar bo'lgan: "Ingliz olimi G.Myeredit – Ouens Hamid akani Britaniyaning hozirgi qirolichasi Yelizaveta II ning Vindzordagi rezindesiyasida joylashgan shaxsiy kutubxonasiga ham olib bordi. U yerda hali fanga ma'lum bo'lmagan ikki qo'lyozma bilan tanishdilar. Biri "Xamsa"ning to'liq nusxasi, ikkinchisi – shoirning tanlangan she'rlaridan tasnif etilgan kattagina "Devon" [2].

Qisqasi, navoiyshunos H.Sulaymon tomonidan tashkil etilgan ilmiy ekspeditsiya tufayli Markaziy Osiyo xalqlarining taqdir hukmi bilan xorijga sochilib ketgan madaniy merosining kichik bir bo'lagi qo'lga kiritildi, yurtimizga olib kelindi, nashr yuzini ko'rdi. Bugun mustaqil yurtimiz olimlari oldida turgan muhim vazifalardan biri o'z vaqtida salafлари tomonida boshlab berilgan ezgu ishni izchil davom ettirishdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Сулейманов Х.С.По рукописным фондам Индии.// Советская тюркология. 1980 №2. 68-73с.
2. Ф.Сулаймонова Жасоратга тўла умр. // Алишер Навоий лирикаси Х.Сулаймон тадқиқотларида. – Тошкент .2025. 208-222с.